

RAQAMLI IQTISODIYOTNING TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJIGA TA’SIRI

Zuparov Bobur Botir o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-0008-8532-2506>

Email: boburzuparov23@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18983768>

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy adabiyotlarda shakllanishi va evolyutsiyasi (tavakkal/nojo‘ya sharoit, kapital egasidan farqlanish, innovatsiya va “kashf etish” funksiyasi) yoritilib, ushbu nazariy asos raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyati qanday tezlashishi va transformatsiyalanishini tushuntirish uchun qo‘llanadi. O‘zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning tadbirkorlikka ta’siri, jumladan, “Digital Uzbekistan-2030” strategiyasi doirasidagi yo‘nalishlar hamda amaliy muammolar (infratuzilma, raqamli ko‘nikmalar, xususiy sektor ishtiroki) tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, onlayn to‘lovlar, sarmoyador, kapital, reklama xizmatlari

Abstract: The article covers the formation and evolution of the concept of entrepreneurship in economic literature (risk/adverse conditions, difference from the owner of capital, innovation and the "discovery" function), and this theoretical framework is used to explain how entrepreneurial activity accelerates and transforms in the digital economy. Using the example of Uzbekistan, the impact of the digital economy on entrepreneurship is analyzed, including areas within the framework of the “Digital Uzbekistan-2030” strategy, as well as practical problems (infrastructure, digital skills, private sector participation).

Keywords: digital economy, entrepreneurship, online payments, investor, capital, advertising services.

Аннотация. В статье раскрывается формирование и эволюция понятия предпринимательства в экономической литературе (риск/неблагоприятные условия, разграничение с владельцем капитала, функции инновации и «открытия»), а также применение данной теоретической базы для объяснения ускорения и трансформации предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики. На примере Узбекистана анализируется влияние цифровой экономики на предпринимательство, включая приоритетные направления стратегии «Digital Uzbekistan–2030», а также практические проблемы, такие как развитие инфраструктуры, формирование цифровых навыков и участие частного сектора.

Ключевые слова: цифровая экономика, предпринимательство, онлайн-платежи, инвестор, капитал, рекламные услуги.

Raqamli texnologiyalar (internet, platformalar, ma’lumotlar bilan ishlash, raqamli to‘lovlar) iqtisodiy munosabatlarni tezkor va shaffofroq shaklga o‘tkazib, biznes yuritish xarajatlarini pasaytiradi. Shu bilan bir qatorda, bozorga kirish to‘siqlarini ham qisqartiradi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik uchun “tezlashtiruvchi muhit” vazifasini o‘taydi, ya’ni yangi mahsulot, xizmatlarni sinovdan o‘tkazish (MVP), masofaviy savdo, onlayn marketing va raqamli logistika orqali o‘shish imkonini beradi. O‘zbekiston amaliyotida ham raqamli transformatsiya davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, “Digital Uzbekistan-2030” strategiyasi shu jarayonning asosi hisoblanadi[1].

“Tadbirkorlik” tushunchasi va uning rivojlanishi. Tadbirkorlik atamasi iqtisodiy adabiyotlarda keng uchraydi, ammo aniq tarixiy shakllanish masalasida muhim nuqta bor: “entrepreneur” so‘zi fransuz tilida 16-17-asrlarda ham uchragan (masalan, davlat buyurtmalari, kontrakt ishlarini oluvchi pudratchi ma’nosida). Biroq iqtisodiy nazariyadagi tadbirkor sifatida 18-asrda, ayniqsa Richard Cantillonning (1755) yondashuvi orqali “xaridni ma’lum narxda qilib, kelajakda noma’lum narxda sotish” kabi noaniqlik, tavakkal bilan bog‘langan iqtisodiy rol sifatida aniqroq talqin qilinadi[2]. Keyingi bosqichlarda tadbirkorlikni kapital egasi (sarmoyador) bilan aynan bir tushuncha sifatida baholanmagan. Masalan, Turgot (1760-yillar) iqtisodiy agent sifatida “entrepreneur” tushunchasini kapital “avanslari” va ishlab chiqarishdagi funksional rol bilan bog‘lab tahlil qiladi. Bu esa tadbirkorni faqat kapital qo‘yuvchi shaxsdan farqlashga yordam bergan yondashuvlardan biri sifatida ko‘riladi[3]. 19-20-asrlarga kelib tadbirkorlikning markaziy belgisi sifatida innovatsiya g‘oyasi kuchaydi. Schumpeter tadbirkorni

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

“yangi kombinatsiyalar”ni (new combinations) amalga oshiruvchi shaxs sifatida ko‘rsatadi va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiya markazga qo‘yadi[4].

Tadbirkorlik ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bo‘lib, u tashabbuskorlik, innovatsionlik, yaratuvchanlik, islohotchilik va oqilona tavakkalchilik kabi asosiy belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar tadbirkorlik faoliyatini oddiy xo‘jalik faoliyatidan ajratib turadi hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi yetakchi rolini belgilaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur belgilar yanada kuchayib, raqamli texnologiyalar tadbirkorlik tashabbuslarini tezkor ro‘yobga chiqarish, yangi bozorlar va iste‘molchilarni shakllantirish hamda innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlikning erkinlik, mustaqillik, teng huquqlilik, ixtiyoriylik, moddiy javobgarlik va qonuniylik kabi tamoyillarga asoslanishi raqamli iqtisodiyot sharoitida ham uning barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlovchi muhim omil bo‘lib qolmoqda. Demak, raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik faoliyatining mazmunini boyitib, uning innovatsion va raqobatbardosh rivojlanishi uchun mustahkam institutsional va texnologik asos yaratadi[5]. Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida korxonalaridan resurslardan oqilona foydalanish, xomashyo va materiallarni tejamkor sarflash, asbob-uskunalardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni kamaytirish talab etiladi; bu omillar yakunda rentabellik va foydalilikni oshirishga xizmat qiladi. Samaradorlik mohiyatan xo‘jalik faoliyatining yakuniy natijasi (foyda)ni unga erishish uchun sarflangan resurslar bilan taqqoslash orqali ifodalanadi, ya‘ni xarajatlar birligiga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy natija qancha ko‘p bo‘lsa, samaradorlik shuncha yuqori bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan guruhlariga ajratish (amortizatsiya, ijara, sug‘urta, boshqaruv ish haqi kabi doimiy xarajatlar hamda xomashyo, yoqilg‘i-energiya, ishlab chiqarish ishchilari ish haqi kabi o‘zgaruvchan xarajatlar) korxonalar faoliyatini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kichik korxonalar uchun mahsulotni o‘z vaqtida ishlab chiqarish va sotish pul tushumini ta‘minlabgina qolmay, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda byudjet oldidagi majburiyatlarni bajarish imkonini yaratadi. Biroq amaliyotda sotish rejasi bajarilgani holda yetkazib berish muddatlari buzilishi, sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining me‘yorida ortib ketishi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish maromining yetarli bo‘lmashligi yoki logistika muammolari sotuv hajmini pasaytirishi mumkin; shu bois, raqamli iqtisodiyot vositalari (raqamli hisob-kitob, ombor va ta‘minot zanjiri monitoringi, sotuv analitikasi, raqamli reklama va onlayn savdo) aynan shu “samaradorlik omillari”ni boshqarish va nazorat qilishni kuchaytirib, kichik biznesning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi[6].

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida tadbirkorlik faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq, tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat sifatida belgilangan[7]. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot bo‘yicha institutsional baza sifatida Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi “Digital Uzbekistan-2030” strategiyasini tasdiqlashga oid hujjati keltiriladi. Bu strategiya raqamli infratuzilma va e-hukumat xizmatlarini kengaytirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli transformatsiyani jadallashtirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, xalqaro baholash va tahlillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning o‘sishi bilan birga raqamli savodxonlik (ayniqsa hududlarda), tartibga solish sifati, hamda xususiy sektor ishtirokining yetarli bo‘lmashligi kabi masalalar dolzarb ekani ko‘rsatiladi.

Raqamli iqtisodiyot tadbirkorlikka quyidagicha ta‘sirga ega: bozorga kirish xarajatlari kamayadi. Onlayn savdo, raqamli reklama xizmatlari kichik biznesga ham tez boshlash imkonini beradi. Bu Cantillon ta‘kidlagan noaniqlik sharoitida “tez moslashish”ni osonlashtiradi. Innovatsiya sikli tezlashadi. Yangi kombinatsiyalar endi faqat texnologiya emas, balki platforma modeli, raqamli xizmat dizayni, ma‘lumot asosidagi narxlash kabi biznes-model innovatsiyalari ham bozorni o‘zgartiradi. Raqobat “kashfiyot” mexanizmini kuchaytiradi. Raqobatning “kashfiyot mexanizmi” sifatida namoyon bo‘lishi Xayek tomonidan asoslab berilgan. Uning ta‘kidlashicha, raqobat bu yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlash va kashf etish jarayoni bo‘lib, tadbirkorlar bozor talabini aniqlash orqali iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradilar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu “kashfiyot mexanizmi” A/B testlar, analitika va tezkor teskari aloqa vositalari orqali yanada jadallashadi[8].

Iqtisodiyotning raqamli ko‘rinishida tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun bir qator amaliy choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun raqamli ko‘nikmalarni (digital skills) ommaviy ravishda oshirish zarur, chunki aynan ushbu ko‘nikmalar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bilan

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

birga, elektron hukumat xizmatlari hamda raqamli infratuzilma loyihalarini, ayniqsa hududlarda, izchil rivojlantirish tadbirkorlik subyektlari uchun qulay biznes muhitini yaratadi. Bundan tashqari, raqamli moliya va fintech xizmatlari rivojida risklarni boshqarish hamda tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish tadbirkorlik faoliyatining barqaror va xavfsiz o‘shirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik faoliyatiga faqat texnologik qulayliklar yaratish bilangina cheklanmay, uning ichki mantig‘i va ishlash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli muhit sharoitida tadbirkorlar bozor muammolarini tezroq aniqlash, iste’molchi ehtiyojlaridagi o‘zgarishlarga moslashish hamda qarorlarni ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu holat noaniqlik va tavakkalchilikda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun moslashuvchanlikni oshirib, biznes jarayonlarini samaraliroq tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar innovatsiyalarni yaratish, sinovdan o‘tkazish va keng miqyosda joriy etish jarayonini tezlashtirib, innovatsiyani iqtisodiy o‘shirishning markaziy omiliga aylantirmoqda. Natijada, yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarining paydo bo‘lishi orqali raqobat kuchayib, raqobatning “kashfiyot mexanizmi” sifatidagi roli yanada faollashadi. Bunday sharoitda tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy natijadorlikni oshiradi, balki butun iqtisodiy tizimning dinamik va barqaror rivojlanishiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz>
2. <https://mises.org/quarterly-journal-austrian-economics/turning-word-upside-down-how-cantillon-redefined-entrepreneur>
3. J. M. Menudo and J. M. O’Kean, A.-R.-J. Turgot and the Construction of an Economic Agent Called Entrepreneur, Department of Economics, WP ECON 06.25, Universidad Pablo de Olavide, Seville, Spain, 2006.
4. J. A. Schumpeter., The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle., Cambridge, Harvard University Press, 1934.
5. H. R. Hamroyev., Tadbirkorlik asoslari: kasb ta’limi (iqtisodiyot) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma., Toshkent, O‘zbekiston: Yangi nashr nashriyoti, 2010.
6. B. Xodiyev, M. S. Qosimova, A. N. Samadov., Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik., darslik, Toshkent, O‘zbekiston: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2014.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida,” O‘RQ-328-son, 2-may 2012-yil.
8. F. A. Hayek., Competition as a Discovery Procedure., The Quarterly Journal of Austrian Economics., vol. 5, no. 3, pp. 9-23. 2002